

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

AMIRQULOVA NARGIZA AMIRQUL QIZI

**FRAZEOLOGIZMLAR TARKIBIDA QO‘SHMA SO‘ZLARNING
KOGNITIV SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI
(INGLIZ TILI MISOLIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Amirqulova Nargiza Amirqul qizi

Frazeologizmlar tarkibida qo‘shma so‘zlarning kognitiv semantik va pragmatik xususiyatlari (ingliz tili misolida)..... 3

Амиркулова Наргиза Амиркул кизи

Когнитивно семантические и прагматические особенности сложных слов в составе фразеологизмов (на примере английского языка) 27

Amirkulova Nargiza Amirkul qizi

Cognitive semantic and pragmatic peculiarities of compound words in phraseological units (on the example of the English language) 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

AMIRQULOVA NARGIZA AMIRQUL QIZI

**FRAZEOLOGIZMLAR TARKIBIDA QO‘SHMA SO‘ZLARNING
KOGNITIV SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI
(INGLIZ TILI MISOLIDA)**

10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil3005 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdhti.uz hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Yelkin Denis Yuryevich**
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Tatyana Anatolevna Bushuy**
filologiya fanlari doktori, professor

Davlatova Muhayyo Hasanovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "29" may soat "12" dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117 O'zbekiston Samarqand shahri Gagarin ko'chasi 43- uy. Tel.: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdhti.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (63162-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117 O'zbekiston Samarqand shahri Gagarin ko'chasi 43-uy. Tel.: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "14" may kuni tarqatildi.
(2026-yil "14" may dagi № 35 -raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash rasi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar rasi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida soʻnggi yillarda soʻz yasash modellarini, jumladan, qoʻshma soʻzlarni kognitiv jihatdan oʻrganishga boʻlgan qiziqish sezilarli darajada oshmoqda. Qoʻshma soʻzning tabiati, uning lisoniy maqomi, ayniqsa, frazeologizmlar tarkibida namoyon boʻladigan kognitiv-semantik va pragmatik xususiyatlarini oʻrganish yanada chuqurroq va kengroq tadqiqotlarning olib borilishini taqozo etadi. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi voqelikda kechayotgan hodisalarni kommunikativ voqelantirishning asosiy vositalaridan biri boʻlgan qoʻshma soʻzlarning derivasion-semantik xususiyatlarini ularning frazeologik birliklar doirasida faollashadigan vazifalari, mazmun ifodalash va axborot yetkazish borasidagi imkoniyatlari bilan bogʻliq holda oʻrganish muhimligi bilan belgilanadi. Til va nutq sathlarida kechadigan paradigmatic va sintagmatic munosabatlarning kognitiv va kommunikativ faoliyatlar uygʻunligida yuzaga kelishini isbotlash hamda ushbu hamjihatlik sharoitida hosil boʻladigan lisoniy mahsulot – qoʻshma soʻzlarni alohida bir til, masalan, ingliz tili materiali asosida tadqiq etish nazariy va amaliy jihatdan gʻoyat muhimdir.

Dunyoda soʻnggi yillarda tilning kognitiv va emotsional mazmunini shakllantirish va ifoda etish funksiyasini bajarish vositasi hisoblangan frazeologik birliklarni oʻrganish, ularning tarkibida faollashadigan qoʻshma soʻzlar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash, frazeologizmlar pragmatik mazmuni shakllanishida qoʻshma soʻzlarning oʻrnini belgilash yuzasidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Dunyo miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlarda frazeologizmlar tarkibida qoʻshma soʻzlar derivatsiyasi va struktur-semantik koʻchimlarni tavsiflash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Frazeologizmlar tarkibidagi qoʻshma soʻzlarning polisemantik xususiyatlarini kognitiv jihatdan oʻrganish zarurati kuchaymoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda chet tillarni oʻrganishga, xususan, ularning frazeologik zahirasining oʻziga xos xususiyatlarini tadqiq etishga katta ahamiyat berilmoqda. Dunyoning koʻplab mamlakatlari bilan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-iqtisodiy munosabatlarning mustahkamlanishi, siyosiy va madaniyatlararo aloqa xususiyatlari tadqiqi va tahlili ijtimoiy- madaniy taraqqiyotning muhim omili ekanligini koʻrsatdi. Bugun Oʻzbekiston dunyo siyosatida muhim markazlardan biriga aylandi va bu xalqaro siyosiy hamjamiyati tomonidan eʼtirof etilgan¹. Ingliz va amerika lisoniy adabiyotida hozirgacha frazeologiya nazariyasiga bagʻishlangan asarlar unchalik koʻp emas, ammo mavjud boʻlgan eng muhim ilmiy ishlar ham frazeologik birliklarni ajratishning ilmiy asoslangan mezonlari, frazeologik birliklar va soʻzlar mutanosibliigi, frazeologiyaning tizimliliigi, frazeologik birliklarning shakllanishi, frazeologiyani oʻrganish usuli va boshqa shu kabi fundamental muammolar yechimi ustidagi tadqiqot ishlari bilan chegaralanib kelmoqda. Shu sababli, ushbu tadqiqot ishi orqali amalga oshirilayotgan frazeologizmlar tarkibida

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 22-yil 20-dekabrda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy majlisga murojaatnomasi // <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojatnomasi-toliq-matn> (12.01.2025)

qo'shma so'zlarning kognitiv-semantik va pragmatik xususiyatlarini ingliz tili misolida o'rganish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmonlari, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son, 2023-yil 20-apreldagi "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-128-son, 2024-yil 02-fevraldagi "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-54-son qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-son, 2022- yil 19-yanvardagi "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi 34-son qarorlari hamda tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kunda frazeologiya masalasiga doir o'zbek tilshunosligida ustuvor tadqiqotlar davom etmoqda: jumladan, o'zbek olimlaridan Sh.Rahmatullayev, Y.Pinxasov, M.Umarxo'jayev, X.Berdiyev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, Q.Hakimov, M.Xalikova, N.Nasrullayeva² va boshqa bir qator tilshunoslar frazeologizmlar rivojiga munosib hissa qo'shganlar.

Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarning o'rganilishi bo'yicha ko'plab

² Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари: Филол.фан.докт. дисс.автореф. – Тошкент, 1966. 46 б.; Пинхасов Я.Д. Хозирги ўзбек адабий тили. Лексикология ва фразеология. – Тошкент, 1969.-265 б.; Умарходжаев М.И. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря: Автореф. дисс. ... канд.филол.наук.– Москва, 1972.– 27 с.; Бердиёров Х., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич. – Самарканд, 1977. – 126 б.; Маматов А.Э. Хозирги замон ўзбек тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991.– 276 б.; Ҳакимов Қ.М. Ўзбек тилидаги содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанликлари: Филол.фан.номз. дисс.автореф.– Тошкент, 1994.– 24 б.; Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол.фан.докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1999.– 312 б.; Халикова М.К. Фразеология как форма отражения национального менталитета в языковой картине мира (на материале русского и узбекского языков): Автореф. дисс. канд. филол.наук.- Ташкент, 1999. – 142 с.; Насруллаева Н.З. Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларнинг шаклланиши: Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 71 с.

tadqiqotlar amalga oshirilgan. Frazеologiyaning fan sifatida shakllanishida rus olimlaridan N.Amosova, M.Tagiyev, N.Shanskiy, V.Mokiyenko, V.Vinogradov va A.Kuninlar katta hissa qo‘shdilar³. Frazеologik birliklarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq qilgan g‘arb tadqiqotchilaridan N.Norrik, B.Altенberg, A.De R.Glezer, G.Knappe, La Granja⁴ kabi olimlarning nomlarini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq.

Xorijiy olimlardan R.Lengekkyer, Ch.Fillmor, B.Atkins, J.Fokonye; J.Lakoff, M.Jonson, M.Terner, rus tilshunoslaridan Y.Kubryakova, Y.Pankrats, Y.Raxilina, Y.Pozdnyakova, L.Babina N.Boldyrev, A.Chudinov, L.Manerko va boshqalar qo‘shma so‘zlar nazariyasi rivojiga hissa qo‘shganlar⁵. I.Arnold, R.Paul so‘z birikmalari tarkibidan qo‘shma so‘zlarni ajratib olish g‘oyasini ma‘qullagan bo‘lsalar⁶, P.Karashuk, P.Sarev, O.Meshkov, Z.Xaritonchik, N.Arutyunova, M.Stepanova, I.Chernyshevalar qo‘shma so‘zlarni shakllantirishga oid fikrlarni olg‘a surdilar⁷. Y.Shamlidi, N.Guterman, L.Mostovaya, L.Bauer, K.Rayder⁸ kabi

³ Амосова Н.И. Основы английской фразеологии. – Ленинград, 1963.– 227 с.; Тагиев М.Т. Глагольная фразеология современного русского языка. – Баку, Маариф, 1966.– 150 с.; Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – Москва, 1969. – 315 с.; Мокиенко В.М. Славянская фразеология. – Москва, 1970.– 200 с.; Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины: Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва, 1977. – 267 с.; Кунин А.В. Фразеология современного английского языка.– Москва, 1996. – 381с.

⁴ Norrick N.R. How proverbs mean: semantic studies in English proverbs. – Berlin; New York: Mouton, 1985.-213 p.; Altенberg Bengt. On the phraseology of spoken English// The evidence of recurrent word – combinations. – Oxford: Clarendon Press, 1998.– P. 101– 121; Glaser R. The Stylistic potential of phraseological units in the light of genre analysis //Phraseology.Ed. A.P.Cowie.– Oxford Clarendon Press, 1998. – P. 25– 45; Knappe G. Idioms and fixed expressions in English Language Study before 1800.– Peter Lang, 2004.– 664 p.; Maria Granja Alvarez de la. Fixed expressions in cross-linguistic perspective: a multilingual and multidisciplinary approach. – Humburg: Verlag Dr. Kovac, 2008.– 386 p.

⁵ Langacker R.W. Foundations of cognitive grammar. Vol.2: Descriptive Application. – Stanford, 1991. – 399 p.; Fillmore C.J., Atkins B.T. Towards a framebased lexicon: The semantics of Risk and its neighbors // Frames, fields and contrast. – New York, 1992. – P. 75– 102; Fauconnier G. Mappings in Thought and Language. – UK: Cambridge, 1997. – 241 p.; Lakoff J., Johnson M. Philosophy in flesh: The embodied mind and its challenge to western thought. New York, 1999. – 590 p.; Turner M. Cognitive Dimensions of Social Science: The Way We Think About Politics, Economics, Law, and Society. – Oxford, 2001. – 203 p.; Кубрякова Е.С., Панкрац Ю.Г. О типологии процессов деривации//Теоретические аспекты деривации. – Пермь, 1982. – С. 7– 20; Рахилина Е.В. Когнитивная семантика: история, персоналии, идеи, результаты. – Москва, 1998. – 49 с.; Позднякова Е.М. Категория имени деятеля и пути ее синхронного развития в когнитивном и номинативном аспекте: На материале английского языка: Автореф. Докт. филол. наук. – Москва, 1999. – 56 с.; Бабина Л.В. Когнитивные основы вторичных явлений в языке и речи. – Тамбов; Москва, 2003. – 264 с.; Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики//Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. №1. - С. 19– 33; Чудинов А.П. Политическая лингвистика. – Москва, 2006. – 254 с.; Манерко Л.А. Языковая личность в когнитивных и дискурсивных исследованиях//Когнитивные исследования языка.№ 32.– Москва, 2018. – С. 353– 361

⁶ Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Ленинград, 1973. – 303 с.; Paul Réе. Der Ursprung der moralischen Empfindungen. – Marburg: Basiliken Presse, 2001. – 150 p.

⁷ Карашук П.М. Производное слово в лексико-семантической системе английского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1974. – 50 с.; Царев П.В. Производные слова в английском языке. - Москва, 1977. – 135 с.; Мешков О.Д. Семантические аспекты словосложения английского языка. - Москва, 1986. - 204 с.; Харитончик З.А. Лексикология английского языка. – Минск, 1992. – 229 с.; Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. – Москва, 1998. – 341 с.; Степанова М.Д., Чернышева И.И. Лексикология современного немецкого языка. – Москва, 2005. – 256 с.

⁸ Шамлиди Е.Ю. Структурно-семантические и словообразовательные особенности двухкомпонентных зоосемических наименований: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 1978. – 26 с.; Guterman N. The Anchor Book of Latin Quotations. 1990. – 448 p.; Мостовая Л.А. Семантические особенности и иллюкативные функции конструкций с вопросительными словами "зачем" и "почему": Автореф. дисс канд. филол. наук. - Москва, 2010. – 24 с.; Bauer L. An Introduction To International Varieties of English.- Oxford, 2012. – 300 p.; Ryder Ch. Why suffixes tend to be used commonly for making new words? // English language and applied linguistics. – UK: England, 2023. – P. 55– 66.

tilshunoslar qo'shma so'zlar strukturasi borasida qimmatli fikrlar bildirganlar. Shuningdek, ingliz tili materialida til va nutqda frazeologik birliklarning verballashuvi, frazeologik birliklar tarkibidagi qo'shma so'zlarning pragmatik jihati, frazeologizmlar tarkibida qo'shma so'zlarning kognitiv-semantik xususiyatlari, qo'shma so'zlarning strukturaviy tuzilishi, polisemantik xususiyatlari va ularni o'rganishning kognitiv jihati, qo'shma so'zlarning matn shakllantirish imkoniyatlari o'rganilmoqda.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy- tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz tili nazariy aspektlari kafedarsining "Turli tizimdagi tillarning tipologik va chog'ishtirma xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlar doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi frazeologizmlar tarkibida mavjud bo'lgan qo'shma so'zlarning struktur-semantik xususiyatlarini o'rganish va frazeologizmlar pragmatik mazmuni shakllanishida qo'shma so'zlarning o'rnini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz tili qo'shma so'zlarining mohiyatini tavsiflash va frazeologik birliklar tarkibidagi qo'shma so'zlarning polisemantik xususiyatlarini yoritish;

ingliz tili frazeologik birliklari tarkibida qo'shma so'zlarning derivatsiyasini aniqlash va struktur-semantik ko'chimlarni tasvirlash;

ingliz tilida qo'shma so'zlarning matn shakllantirish imkoniyatlarini tahlil qilish;

ingliz tilida frazeologizmlar pragmatik mazmuni shakllanishida qo'shma so'zlarning o'rnini belgilash.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz tili tizimida mavjud bo'lgan tarkibida qo'shma so'zlar ishtirok etgan frazeologik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz tilidagi frazeologizmlar tarkibida qo'shma so'zlarning kognitiv-semantik va pragmatik xususiyatlari hamda matn shakllanishida namoyon bo'ladigan imkoniyatlari talqini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida lingvistik tavsiflash, tasvirlash va tasniflash, modellashtirish, kontekstual, struktur-semantik, leksik hamda konseptual-kognitiv tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ingliz tilidagi frazeologik birliklar tarkibida uchraydigan qo'shma so'zlarning kognitiv semantik va pragmatik xususiyatlari ilk bor tizimli ravishda yoritilib, ularning til tizimidagi lisoniy maqomi va funksional o'rnini aniqlashtirildi hamda qo'shma so'zlarga xos bo'lgan kategoriyal belgilarning majmuaviy, strukturaviy va semantik yaxlitligi ilmiy jihatdan asoslandi;

qo'shma so'zlar strukturaviy jihatdan tasniflanib, ikki komponentli va ko'p komponentli birliklarga ajratildi hamda ularning frazeologik birliklar tarkibida namoyon bo'ladigan polisemantik xususiyatlari tizimlashtirildi.

frazeologik birliklar tarkibidagi qo'shma so'zlarning shakllanishida chiziqli derivatsiya eng faol va mahsuldor yo'nalish sifatida asoslanib, N_1+N_2 , $N_1+(-)+N_2$, $A+N$, $Adj+N$ kabi derivatsion modellar formal operatorlarining farqlanishi

aniqlanib, ularning struktur semantik ko‘chim mexanizmlari dalillandi;

ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlarning lingvostilistik va konnotativlik xususiyatlari hamda matn hosil qilishdagi roli ochib berilib, qo‘shma so‘zlar ishtirok etgan frazeologik birliklarning konseptual-kognitiv modeli ishlab chiqildi, ularni tahlil qilishda freym modellaridan foydalanishning samaradorligi isbotlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz tili frazeologizmlar tarkibida qo‘shma so‘zlarning kognitiv-semantik va pragmatik xususiyatlari keng o‘rganilgan, qo‘shma so‘zlarning strukturaviy tasniflari keltirilgan va ularning freym modellari tasvirlangan;

tarkibida qo‘shma so‘zlar ishtirok etgan frazeologizmlar tadqiqi natijalaridan oliy o‘quv yurtlarida ingliz tili leksikologiyasi, ingliz tili grammatikasi, ingliz tili morfologiyasi, tarjima nazariyasi sohalariga oid o‘quv adabiyotlarini yaratish taklif qilingan;

ingliz tilidagi tarkibida qo‘shma so‘zlar ishtirok etgan frazeologizmlar semantik strukturasi shakllanishi tahlil namunalari o‘z aksini topgan va ushbu frazeologik birliklar asosida qo‘shma so‘zlarning semantik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish yuzasidan bir qator taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi obyektga yondashuv va qo‘llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar kognitiv-semantik va struktur tahlil metodlari orqali chiqarilgani, xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarkibida qo‘shma so‘zlar ishtirok etgan frazeologizmlarni tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish g‘oyalarini ingliz, o‘zbek va boshqa tillar frazeologik birliklar tizimiga tatbiq qilish imkoniyatida namoyon bo‘ladi, shuningdek, olingan natijalar tilshunoslikning grammatika, morfologiya, frazeologiya, semasiologiya, lingvomadaniyatshunoslik va lingvopragmatikaga oid qator muammolar yechimini izohlash borasida nazariy ahamiyatga molikligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, dastavval, uning natijalaridan oliy o‘quv yurtlarida ingliz tili grammatikasi, morfologiyasi, leksikologiyasi, frazeologiyasi, tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, xalqaro madaniy aloqa, umumiy tilshunoslik, matn tahlili, tarjimashunoslik, stilistika, leksikologiya, lingvopragmatika fanlari bo‘yicha nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish va maxsus seminarlarni tashkil qilishda, yangi ko‘rinishdagi o‘quv qo‘llanmalari yaratish, turli ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda manba xizmatini o‘tashi mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tili tarkibida qo‘shma so‘zlar ishtirok etgan frazeologizmlarning struktur-semantik tahlili, lingvostilistik va konnotativlik xususiyatlari hamda frazeologik va idiomatik birliklarda namoyon bo‘lish imkoniyatlari tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

ingliz tilidagi frazeologik birliklar tarkibida uchraydigan qo‘shma so‘zlarning kognitiv semantik va pragmatik xususiyatlari ilk bor tizimli ravishda yoritilib,

ularning til tizimidagi lisoniy maqomi va funksional oʻrni aniqlashtirilgani hamda qoʻshma soʻzlarga xos boʻlgan kategoriyal belgilarning majmuaviy, strukturaviy va semantik yaxlitligi ilmiy jihatdan asoslanganligi haqidagi xulosalaridan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarga moʻljallangan SUZ-800-21-GR-3181 “Reinforcing English Language Competence at Karshi State University” nomli loyiha doirasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2024-yil 29-avgustdagi №04/242-son maʼlumotnomasi). Natijada, ingliz tilida qoʻshma soʻzlarning matn shakllantirishdagi lingvostilistik hamda konnotativlik xususiyatlarini tahlil qilish asoslaridan ilmiy izlanishlar olib borishda muhim manba boʻlib xizmat qilgan;

qoʻshma soʻzlar strukturaviy jihatdan tasniflanib, ikki komponentli va koʻp komponentli birliklarga ajratilgani hamda ularning frazeologik birliklar tarkibida namoyon boʻladigan polisemantik xususiyatlari tizimlashtirilgani haqidagi xulosalardan “Mahalla va oila” ilmiytadqiqot institutining JHBL-20 sonli “Oila, mahalla va gender tengligi mavzusidagi badiiy asarlarning elektron korpusini yaratish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyiha doirasida samarali qoʻllanilgan (Oila va xotin qizlar qoʻmitasi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 27-avgustdagi №01-09/2121-A-son maʼlumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida foydalanilgan materiallard frazeologik birlik orqali ifodalanayotgan jumlaning nutq vaziyati bilan munosabatini oʻrganish ushbu jumlaning pragmatik jihatini tashkil qilishi dalillar bilan boyitilgan;

frazeologik birliklar tarkibidagi qoʻshma soʻzlarning shakllanishida chiziqli derivatsiya eng faol va mahsuldor yoʻnalish sifatida asoslangani, $N_1 + N_2$, $N_1 + (-) + N_2$, $A + N$, $Adj + N$ kabi derivatsion modellar formal operatorlarining farqlanishi aniqlanib, ularning struktur semantik koʻchim mexanizmlari dalillanganiga doir xulosalardan A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyot universitetining 2020-2022 yillarda bajarilgan, AM-F3-201908172 “Oʻzbek tilining taʼlim korpusini yaratish” amaliy loyihasida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, Fan va Innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adbiyoti universitetining 2024-yil 4-sentabragi №04/1-2278-son maʼlumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida ingliz tilida qoʻshma soʻzlarning matn shakllantirish imkoniyatlarini tahlil qilish jarayonlari muammolariga doir xulosalar ilmiy maqolalar hamda frazeologizmlar tarkibidagi qoʻshma soʻzlar haqida olib borilgan tadqiqotlar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

ingliz tili frazeologik birliklari tarkibida qoʻshma soʻzlarning derivatsiyasi va qoʻshma soʻzlar ishtirokida shakllangan frazeologik birliklarning kontekstga qarab yangidan-yangi semantik maʼnolariga ega boʻlishiga oid tahlil natijalaridan 2024yil 20-avgust kuni efirga uzatilgan Oltin voha radiosining “Eʼzoz” eshittirishi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 23-avgustdagi №1705/127-son maʼlumotnomasi). Natijada, oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat qarorlari mohiyatini ommaga yetkazishda koʻrsatuvning ilmiyommabopligi taʼminlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 14 ta maqola, ularda 8 tasi xorijiy va 6 tasi respublika jurnallarida e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning asosiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning mavzusi, uning dolzarbligi asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqoti obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilgani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Birinchi bob "**Tadqiqot ishining nazariy asoslari**" deb nomlanadi. Birinchi bobning birinchi fasli "*Frazeologizmlarning tilshunoslikda tutgan o'rni*" masalalarini yoritishga bag'ishlangan, zero, inson omilining nutq faoliyati muammolari zamonaviy tilshunoslik rivojlanishining yetakchi an'alaridan biriga aylanib ulgurdi. Frazeologiyani o'rganish tarixiga ko'z tashlaganda, shu narsa ma'lum bo'ladi, u dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo'lgan. Ma'lum badiiy asarni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilganda, turg'un so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolgan. Bunday holda, tarjima qilinayotgan tillarda mavjud bo'lgan frazeologik iboralar o'rganila boshlangan. Hozirgi davrda frazeologiya masalalari ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik sohalarida o'rganilmoqda. *Frazeologiya* atamasi dunyo filologiyasida 1558 yilda, ingliz adabiyotshunosi Neandr tomonidan badiiy asarlarni tarjima qilishda birinchi marta qo'llangan. Tilshunoslikning boshqa sohalar singari frazeologiya ham o'zining shakllanish va taraqqiyot bosqichlariga ega. Frazeologizmlar kelib chiqishi jihatdan juda qadimiy bo'lsa-da, frazeologiya fan sifatida qariyb ikki yuz yilni o'z ichiga oladi. Frazeologiya ilmining asoschisi shveysariyalik olim Sharl Balli hisoblanadi. Frazeologizmlar, ularning xususiyatlari to'g'risida fikr yuritishdan oldin so'z va so'zlar bog'lanmasi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi. So'zlar bog'lanmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'z (o'zak)ning o'zaro aloqaga kirishishini anglatadi. Bunda so'zlar semantik va grammatik jihatdan bog'langan bo'ladi. Qismlari qat'iy bir qolipga kirib, turg'unlashgan, ko'chma ma'no anglatib, gapda butunligicha bir bo'lak vazifasida keladigan, obrazli, bo'yoqdor turg'un birikma *frazeologik birikma (ibora)* deyiladi: *Qozi buvaning yuragi yorilib ketdi ("qo'rqdi") – Boshi osmonga yetdi ("xursand")*.

Keyingi fasl "*Ingliz tilida so'z yasash masalalariga nazariy yondashuv*" deb

nomlanadi. Hozirgi vaqtda tildagi mobil o‘zgarishlar, tillararo aloqalar natijasida so‘z tuzilishining faollashuvi kuzatilmoqda. Zamonaviy ingliz tilining so‘z yasash tarixi bilan bog‘liq XX asrning ikkinchi yarmida nashr etilgan G.Marchandning asosan analitik, tavsiflovchi yondashuvi aks etgan “The categories and types of present-day English word-formation” (Kategoriya va hozirgi ingliz tili so‘z yasashining turlari) nomli maqolasida so‘z yasashga quyidagicha ta’rif beradi: “bu til fanining shunday bo‘limi, til yangi leksik birliklarni yaratadigan modellar, ya’ni so‘zlarni o‘rganadi”⁹.

“So‘z yasash modeli” o‘sha paytdagi ushbu fan sohasining asosiy atamasi edi, ingliz tili so‘z yasashiga strukturalistik yondashuv L.Bauer va A.Hatcher asarlarida ham keltirilgan¹⁰. So‘z yasashning barcha xususiyatlarini modellashtirilgan, lekin ayni paytda turli qoidalarga bo‘ysunadigan hodisa sifatida ko‘rsatishga qaratilgan eng muvaffaqiyatli urinish Y.Kubryakovaning uch turdagi: analogik, korrelyativ va definitson so‘z yasash jarayonlari haqidagi nazariyasi edi. “Birinchi so‘z yasash jarayoni so‘z yasash qatorining modelini bilish, ikkinchisi so‘z yasashning muntazam korrelyatsiyasini bilish, uchinchisi avval predmet haqidagi bilim undan keyin esa uning nomiga o‘tish modelini o‘zlashtirish orqali ta’minlanadi”¹¹. Agar ingliz tilidagi fe‘ldan yasalgan otlar (*read - reader; speak - speaker; dance - dancer*) korrelyativ so‘z yasash asnosida shakllangan bo‘lsa, unda substantiv otlar definitson tarzda yasaladi (*gardener - a person who cultivates or tends a garden as a job or hobby; prisoner - a person confined in a prison*) va prefiksial otlar, qoida tariqasida, analogik tarzda shakllanadi (*co-worker, co-author, co-brother, co-chairman*). Idiomatik ma’noga ega hosilalarning yasalishi esa – bu maxsus holat hisoblanadi. So‘zlar bog‘lanmasi tarkibidagi elementlarning (so‘zlarning) o‘zaro aloqaga kirishishi, aloqaga kirishgandan keyin butunligicha yo ayrim holda anglatadigan ma’nosi jihatdan uch asosiy guruhga bo‘linadi: a) qo‘shma so‘zlar bog‘lanmasi; b) erkin so‘zlar bog‘lanmasi; c) turg‘un so‘zlar bog‘lanmasi. *Qo‘shma so‘zlar bog‘lanmasi* yoki leksik bog‘lanma ikki yoki undan ortiq asosdan tarkib topgan bo‘ladi. Qo‘shma so‘zlar bog‘lanmasi shaklan uch turlidir: o‘zaklari birga keladigan qo‘shma so‘zlar bog‘lanmasi: a) *Beshyog‘och, Qiziltepa, gulihamishabahor, Shofayziquloq* kabilar; b) o‘zaklari ayrim keladigan qo‘shma so‘zlar bog‘lanmasi: *qishloq xo‘jaligi, aloqa bo‘limi, O‘rta Osiyo* kabilar; c) o‘zaklari qisqartirilgan qo‘shma so‘zlar bog‘lanmasi: *BMT, GES, QARDU*, kabilar. Ingliz tilidagi *driver* so‘zi ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib, *v + er* modeliga asosan yasalgan. Hosila otning ma’nosi *drive* fe‘li – “*to direct the course of a vehicle*” va – *er* suffiksi – *an active agent* asosning ma’nosi bilan bog‘liq. Bundan kelib chiqadiki, *driver – one who drives (a carriage, motorcar)*.

Ikki yoki undan ortiq asoslardan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘zlar ham ma’lum tarkibiy va semantik modellarga muvofiq “quriladi”; masalan, *snowwhite* kabi sifatlar N + Adj (ot + sifat) formulasi bo‘yicha hosil bo‘ladi. Butun qo‘shma so‘zning

^{9 9} Marchand N. The Categories And Types of Present-Day English Word-Formation // Language, Linguistic Society of America. Vol. 47, No. 3, 1971. – P. 708

^{10 10} Bauer L. An Introduction To International Varieties Of English. – Oxford UP, 2012. – 300 p.; Hatcher A.G. An Introduction to the Analysis of English Noun Compounds // World: Vol.16, No.3, 1960. – P. 356.

¹¹ Кубрякова Е.С. Язык и знание. -- Москва: Языки славянской культуры, 2004. – С. 56.

ma'nosi uning tarkibiy qismlarining ma'nolari bilan bog'liq. Ularda ifodalangan tarkibiy modellar va semantik aloqalar derivatlarning shakllanishiga hissa qo'shadi: *sleeper, giver, smiler, soot-black, tax-free* va boshqalar.

Yuqorida muhokama qilingan so'zlarning strukturaviy turlari bilan bog'liq holda so'z yasashning eng keng tarqalgan tasnifiga ko'ra ingliz tilida ikki turi ajratiladi: so'z yasash (word-derivation) va so'zlarni qo'shish (word-composition): 1) so'z yasash – bir so'zni boshqasi zahirida shakllantirish; 2) so'zlarni qo'shish – ikkita so'zni birlashtirish orqali bitta so'zni yasash¹².

So'z yasashda quyidagi usullar ajratiladi: a) so'zning talaffuz va imlosida o'zgarishsiz; b) urg'uning joyini o'zgartirish; c) tovushlarning o'zgaruvchanligi; d) affikslar (prefiks va suffiks) yordamida¹³. Shunday qilib, zamonaviy tilshunoslikda so'z yasash atamasi ikki asosiy ma'noda qo'llaniladi: 1) affiksatsiya, so'z tarkibi, konversiya va 2) yasalma va qo'shma so'zlarning yasalishi, ishlatilishi, tuzilishi va tasnifining barcha jihatlarini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi hisoblanadi. So'z yasash haqidagi fan XIX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshladi. Uning shakllanishida F.Fortunatov, A.Potebnya, I.Boduen de Kurtene kabi olimlar hal qiluvchi rol o'ynadi, shuningdek, N.Krushevskiy, V.Bogorodiskiy, A.Anastasiyev, V.Lopatin, V.Vinogradov, Y.Zemskaya, Y.Kubryakova, K.Levkovskaya, I.Uluxanov, N.Shanskiy, A.Reformatskiy, A.Smirnitskiy, A.Tixonov, N.Yanko-Triniskaya kabi rus olimlari va L.Blumfeld, O.Yespersen, T.MakArtur, G.Marchand singari xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari so'z yasash nazariyasini shakllantirish va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega¹⁴.

Birinchi bobning uchinchi faslida *"Ingliz tilida qo'shma so'zlarning mohiyati va ularning tasnifi masalasi"* tahlil qilingan. Qo'shma so'zlarning hosil bo'lish miqdori chegaralanmagan va ular alohida bir tizimni tashkil qiladi, bu tizimga tuzilishi, tarkibi va qismlarining munosabati har xil bo'lgan birliklar jamlanadi. Qo'shma so'zlarning tabiati ikki tomonlama xususiyatga ega, bu, bir tomondan, ularning tarkibiy qismlardan iborat ekanligida bo'lsa, boshqa tomondan, ular o'ziga xos bir butun ma'noga ega ekanligida namoyon bo'ladi. V.Arnoldning fikriga ko'ra, "qo'shma so'z (a compound word) – bu o'zining yaxlitligiga ko'ra bir butun ko'rinishda qo'llaniladigan va jumla tarkibida maxsus leksik birlik sifatida ajralib turadigan ikki yoki ba'zan (kam hollarda) uchta asosning birikmasidir"; "Qo'shma so'z – bu so'z yasashning shunday bir turiki, unda ikki yoki undan ortiq asoslarni birlashtirish orqali yangi so'zlar hosil bo'ladi"; "Qo'shma so'z – bu ikkita o'zak morfemaning birlashishi"; "Qo'shma so'zlar – bu tarkibida kamida ikkita mustaqil asosga ega bo'lgan, struktur-semantik birlikni tashkil etuvchi so'zlardir". A.Smirnitskiy tomonidan kiritilgan "yaxlitlik" atamasi quyidagi xususiyatlarga ko'ra tavsiflanadi: grafik (birlashtirilgan, defis orqali yozilishi), fonetik (bitta kuchli urg'uning mavjudligi), morfologik, semantik¹⁵. Qo'shma so'zlar yaxlitligining grafik xususiyati haqida gapirganda, uning beqarorligini ta'kidlash kerak *high-brow*,

¹² Качалова К.Н. Практическая грамматика английского языка. – Москва, 2003. – С. 54.

¹³ Качалова К.Н. Практическая грамматика английского языка. – Москва, 2003. – С. 55.

¹⁴ Николаев Г.А. Русское историческое словообразование: Теоретические проблемы. – М., 2010. – 184 с.

¹⁵ Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике. – Москва: ФЛИНТА: Наука, 2018. – 174 с.; Кубрякова Е.С. Язык и знание. – Москва: Языки славянской культуры, 2004.– 560 с.; Смирницкий А. И. Морфология английского языка. – Москва: Изд во Лит. на иностр. яз., 1959. – 440 с

highbrow; round heeled, round-heeled, roundheeled. L.Blumfild barcha qo'shma so'zlarni sintaktik va asintaktik qo'shma so'zlarga ajratadi. Birinchisiga komponentlari tartibi sintaktik iboralardagi so'zlar tartibiga to'g'ri keladigan so'zlar (*a black board*), ikkinchisiga komponentlari ma'lum bir til sintaksisi uchun imkonsiz bo'lgan qo'shma so'zlar kiradi (*man-made*)¹⁶.

Ingliz tilidagi qo'shma so'zlarning eng keng tarqalgan tasniflari so'z turkumlari bo'yicha, ya'ni morfologik yondashuvga asoslangan tasniflar bo'lib, xususan, O.Meshkovning tasnifiga ko'ra, qo'shma so'zlarning mumkin bo'lgan ikki komponentli modellari aniqlandi va shu bilan ingliz tilida qo'shma so'zlar yasash lug'ati tuzildi. Muallif "agar so'z turkumining har bir qismini boshqasi bilan birlashtirib, qo'shma so'z hosil qilinsa, ingliz tili so'z tuzilishi 196 ta modelga ega bo'lar edi." Biroq, ingliz tilidagi qo'shma so'zlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, barcha modellardan so'z turkumlarining ikkitasiga mansub atigi 39 ta birikmasi qo'shma so'zlarni hosil qilishi mumkin¹⁷. Ingliz tilidagi qo'shma so'zlar quyidagi modellarga muvofiq shakllanadi: N+N, N+A, N+G, N+PI, N+PII, N+D, A+N, A+A, A+PI, A+PII, A+D, V+N, V+A, V+V, V+Pr.a, V+D, G+N, PI+N, PII+ N, Pr.p +N, Pr.a + N, Pr.a + PI, Pr.a + PII, Pr.a + D, D+N, D+A, D+V, D+ PI, D+PII, D+D, Num.c+N, Num.c+A, Num.o+N, Num.o+A, Num.o + D, Prep+ N, Prep + Pr.p, Part + N, V= prep (bu yerda N – ot, A – sifat, V – fe'l, G – gerundiy, PI – sifatdosh I, PII – sifatdosh II, Pr.n – substantiv olmosh, D – ravish, Num.c – sanoq sonlar, Num.o – tartib sonlar, Prep – predlog, Part – yuklama). N+N modeli eng keng tarqalgan, qo'shma so'zlar modeli hisoblanadi. Misol ucun: *Qo'shma otlar / Ot asos + ot asos*. Ushbu turdagi otlarda birinchi komponent o'z ma'nosi orqali ikkinchi komponentning ma'nosini aniqlaydi, konkretlashtiradi, sifat vazifasini bajaradi: *raindrop – one drop of rain, handwork – work done with the hands*.

Ikkinchi bob "**Frazeologizmlar tarkibida qo'shma so'zlarning kognitiv va struktur- semantik xususiyatlari**" deya nomlangan bo'lib, o'z ichiga uch faslni oladi. Birinchi faslda "*Ingliz tilida qo'shma so'zlarning strukturaviy tuzilishi*" tahlilga tortilgan. Sintaktik turdagi qo'shma so'zlar zamonaviy ingliz tilida so'z yasashning eng samarali shakllaridan biridir. Ushbu faslda ingliz tili qo'shma so'zlarining strukturaviy tuzilishi tahlilga tortiladi.

Strukturaviy tuzilishiga ko'ra, qo'shma so'z ikki yoki undan ortiq asoslardan iborat so'zdir: *light-green* (och yashil), *toothpaste* (tish pastasi) kabi, ammo "statesponsored"- "davlat ijtimoiy sug'urtasi"; "computergenerated data" – "kompyuter tomonidan yaratilgan ma'lumotlar" kabi birikmalarining so'z birikmasi (aniqlovchi sifat bilan) yoki qo'shma so'zlar (ot asoslari aniqlovchi komponentlar sifatida) ekanligini aniqlash qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun, qo'shma so'zlarni so'z birikmalaridan ajratish juda muhim. So'z birikmasi ham murakkab shakllanishga ega tuzilma. So'z birikmalarining qo'shma so'zlardan asosiy farqi shundaki, so'z birikmalarining tarkibiy qismlari so'zlardir, ammo qo'shma so'zlarning tarkibiy qismlari asoslar yoki morfemalar (tilning eng kichik birligi) deb ataluvchi birliklardan tashkil topgan. Ingliz tilida neytral shakllanishlar ham mavjud bo'lib, bu – tarkibiy qismlari so'z yoki asosning ma'lum belgilariga ega bo'lmagan

¹⁶ Блумфилд Л. Язык. – Москва: УРСС, 2002. – 606 с.

¹⁷ Мешков О.Д. Семантические аспекты словосложения английского языка. – Москва: Наука, 1968. – С. 12.

tuzilmalardir. Bunday birliklar qo'shma so'zlar yoki so'z birikmalari sifatida o'rganiladi, neytral shakllanishning ikki turi mavjud: 1. Ikki substantiv komponentlarning qo'shilmasi: *bus stop* (avtobus bekati), *mineral water* (mineral suv); 2. -ing qo'shimchasiga ega komponentli qo'shilmalar: *living room* (mehmon xona), *swimming pool* (suzish havzasi), *carving knife* (o'yma pichoq, go'sht maydalaydigan pichoq) va boshqalar. Ushbu turdagi qo'shma so'zlarning frazeologizmlar tarkibida faollashuvini kuzatish mumkin: - *Keep your nose clean - Drake warned* (Gardner). *Nose clean* birikmasi ehtiyot bo'lmoq, gunoh ishlardan uzoqda yurmoq ko'chma ma'nosiga ega.

Ingliz tilidagi qo'shma so'zlarni quyidagi turlarga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi: 1. Hosilasiz yoki ildiz qo'shma so'zlar: *to blacklist* (qora ro'yxatga olish), *man-made* (inson yaratgan); 2. Hosilali qo'shma so'zlar: *red-haired* (qizil sochli), *writing desk* (yozuv stoli); 3. To'liq asosli qo'shma so'zlar: *flashlight* (chiroq/fonar), *night club* (tung klub) va 4. Qisqartma (abbreviatura) qo'shma so'zlar: *UK—United Kingdom* (Birlashgan Qirollik), *USA—United states of America* (AQSh)¹⁸.

Ingliz tilida qo'shma so'z yasashning kompressiya usuli ham mavjud, ya'ni jumlar va so'z birikmalarni ixchamlashtirish - jumlar yoki so'z birikmalarini o'zgartirib yoki ularning asl tarkibidagi komponentlar sonini o'zgartirgan holda qo'shma so'zlarni shakllantirish. Misol uchun, *Do it yourself* (buni o'zing bajar) jumlasini *on the do-it-yourself principle* qo'shma so'ziga aylanadi.

Zamonaviy ingliz tilida qo'shma so'zlar imlosi beqaror hisoblanadi. Aynan bir qo'shma so'z turli lug'atlarda turli mualliflar tomonidan turlicha yozilishi mumkin. Masalan: ovozni balandlatuvchi uskuna – *loud speaker, loud-speaker, loudspeaker* shakllarida uchraydi. Bir xil turdagi qo'shma so'zlarni yozishda ham barqarorlik kuzatilmaydi. Masalan, *textbook* (darslik) qo'shib yozilsa, *story-book* tire orqali yoziladi, *a reference book* (ma'lumotnoma) esa alohida yoziladi. Urg'uga ko'ra, qo'shma so'zlar so'z birikmasidan farqlanishi mumkin: *'blackboard* – sinf doskasi, *'black 'board* – qora taxta; *'blackbird* – qorayaloq (qush turi), *'black 'bird* – qora qush. Aksariyat qo'shma otlarda birinchi element urg'u ostiga tushadi: *'copy-book, 'football, 'holiday, 'rain-coat, 'tea-cup*. Shu bilan birga, qo'shma so'zlarda urg'ularning joylashishi qo'shma so'z elementlarini boshqa so'zlar bilan birlashtirish va ularga qarshi turish imkoniyatini yaratadi. Masalan, *'inkpot* — *'teapot, 'classroom* — *'bathroom* qo'shma so'zlarida birinchi elementlar bir- biriga qarshi va shuning uchun urg'u aynan shu elementlarga tushishi kerak. *Mankind* so'zi ikki xil urg'uga ega bo'lishi mumkin. Agar birlashtiruvchi urg'u birinchi bo'g'inga tushsa, bu so'z "erkaklar" degan ma'noni anglatadi. Bunday o'zgarish *blackboard* qo'shma so'zi uchun ham xos bo'lishi mumkin, ammo *an earthquake* qo'shma so'zining o'rniga *a quake of earth* deb bo'lmaydi¹⁹.

N+N (ot+ot): nominativ+nominativ modeli qo'shma so'zlar strukturaviy yaxlitligining eng keng tarqalgan modelidir, bu modeldagi qo'shma so'zlar ot asosning yana bir ot asos bilan birikuvi natijasida hosil bo'ladi: *spokesperson* – notiq;

¹⁸ Гарифуллина А.С. Сложные английские слова// МБОУ Лаишевск. муницип. р-на респ. Татарстан. – Габишево, 2015. – С. 5.

¹⁹ Павленко В.Г. Способ образования и перевода сложных слов в английском языке // Язык и культура. – Томск: ТГУ, 2020. № 49. – С. 83.

spokeswoman – notiq ayol; *signalman* – aloqachi; *timetable* – jadval; *fireman* – o‘t o‘chiruvchi; *chairman* – rais, rais o‘rinbosari.

N + Nv (ot+fe‘l): verbal-nominativ modeli qo‘shma so‘zlar guruhlarini fe‘l yordamida shakllangan ot va ot asoslarining birikuvidan hosil bo‘lgan hosilali qo‘shma so‘zlardir. Ko‘pincha, ushbu modelga mansub so‘zlar “harakat sub’yekti” ma’nosining belgisi sifatida xizmat qiladi. Ushbu modelga beshta kichik guruh kiradi: 1) *N + (V + er)*: *risk-taker* – tavakkal qiluvchi, o‘zini xavf-xatarga qo‘yishni yaxshi ko‘radigan; *shopkeeper* – do‘kondor, do‘kon egasi; 2) *N + (V + ing)*: *fundraising* – mablag‘ yig‘ish, fandrizing, mablag‘ jalb etish; *taxi-hailing* – taksi chaqirish; *record-breaking* – oldingi rekordni buzish, yangi rekord o‘rnatish; 3) *N + (V + ed)*: *state-sponsored* – davlat tasarrufidagi (davlat homiylik qiladigan) ijtimoiy sug‘urta; *computer-generated data* – kompyuter tomonidan yaratilgan ma’lumotlar; 4) *N + (V + tion/ment)*: *price-reduction* – narx-kamaytirish/chegirma. 5) *N + (V + conversion)*: *wage-cut* – ish haqini kamaytirish; *household* - ro‘zg‘or yuritish.

V+Adv → [(V+Adv) + conversion] (fe‘l+ravish): verbal+adverbial modeli guruhlar frazali fe‘llardan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘zlardir: *breakup* – parchalanish; *selloff* - narxini pasaytirib sotish; *run-up* – ishga tushirish.

V+V (fe‘l+fe‘l): verbal+verbal guruhi hosilali qo‘shma so‘zlarni o‘z ichiga oladi: *stop-go*

– to‘xta-olg‘a (hukumatning tadbirkorlik faoliyati uchun cheklovlar va rag‘batlarni navbat-navbati bilan qo‘llash orqali amalga oshiradigan iqtisodiy siyosati). Misol: *Readers recommend: stop-start songs.*

Adj + (N) (sifat+ot): ad’yektiv-nominativ guruhlar bu sifat va ot asosdan yasalgan qo‘shma so‘zlardir. Ushbu modelga muvofiq tuzilgan qo‘shma so‘zlar bajaruvchining sifati yoki obyektning xususiyatlari ma’nosida qo‘llanadi: *cross-party* – partiyalararo; *multichannel* – ko‘p kanalli, ko‘p tarmoqli.

Adj + (V + ing): *hardworking* – mehnatsevar; *easygoing* – mo‘min-qobil. Ushbu modelga ko‘ra yasalgan qo‘shma so‘zlar asos hosil qiluvchi *-ing* suffiksi orqali belgilangan, ham jonli, ham jonsiz predmetlarning ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, struktur tuzilishiga ko‘ra qo‘shma so‘zlarning barchasi ikki katta guruhga bo‘lib o‘rganiladi: ikki komponentli va ko‘p komponentli. Ingliz tilida ikki komponentli qo‘shma so‘zlarning *N+N*, *Adj.+N*, *V+N*, *Gerund+N*, *Adv+N*, *Adj.+Part.I*, *N+Part.II*, *Adj.+Part.II*, *Adv.+Part.II*, *N+Adj* modellari mavjud. Ikki komponentli qo‘shma so‘zlar bizni o‘rab turgan atrofimizdagi olamning eng muhim obyektlari va voqeliklarini aks ettiruvchi ijtimoiy leksikani ifodalaydi. Qo‘shma so‘zlarning hajmi va turlari bo‘yicha eng ko‘p tarqalgani qo‘shma sifatlar va otlar, cheklangan miqdorda esa qo‘shma fe‘llar va ravishlardir.

Ikkinchi faslda “*Frazeologizmlar tarkibidagi qo‘shma so‘zlarning polisemantik xususiyatlari va ularni o‘rganishning kognitiv jihati*” tahlil qilinadi. Qo‘shma so‘zlar tadqiqida duch kelinadigan muammolardan biri – bu, ulardagi polisemiyaning rivojlanishini o‘rganishdir, chunki qo‘shma so‘zlar tilning boshqa birliklari singari bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir nechta ma’nolarni o‘zida mujassam etish imkoniyatiga ega. Polisemiyaning qo‘shma so‘z komponentlarining ma’nolariga bog‘liq bo‘lmagan kompozitsion ko‘pma’nolilik bilan aralashtirib yubormaslik kerak, chunki qo‘shma so‘z komponentlaridan biri qo‘shma so‘zning bir qismi

sifatida turli ma'nolarda ishlatiladi²⁰. Misol tariqasida “*book worm*” qo'shma so'zini keltirish mumkin, *kitob qurti* deya tarjima qilinadigan ushbu qo'shma so'z “kitob o'qishni sevadigan odam” ma'nosiga ega bo'lib, u “*kitob qurti*” yoki “*kitobni yemiruvchi*” ma'nosi bilan bog'liq emas. Polisemantik frazeologik birliklarning ba'zilar anglatadigan ma'nolarning birinchi varianti terminologik xarakterga ega bo'lmasligi ham mumkin, masalan, *the red carpet* – 1) *qizil poyonoz* (hurmatli mehmon oldida to'shaladigan gilam); 2) *tantanali qabul* kabi. *To die* fe'li polisemantik hisoblanadi: 1) *o'lmoq*; 2) *o'lgudek xohlamoq* (I am dying to see him); 3) *unutilmoq* (his fame will never die). Xornbi (Hornby) lug'atida *to die* fe'lining eng keng tarqalgan yuqoridagi uchta ma'nosi qayd etilgan²¹. “Katta Oksford lug'ati”da *to die* fe'lining 12 ta ro'yxatdan o'tgan ma'nosi mavjud²², ushbu fe'l qo'shma so'zlar tarkibiga ham kiritilgan, masalan: *die-hard* - *o'jar, konservator* (*die hard* – *juda sekin o'lish, yashovchan bo'lish* so'z birikmasidan konversiya orqali hosil qilingan).

Frazeologizmlar tarkibidagi qo'shma so'zlar ko'pincha polisemantik bo'ladi. Ularning ma'nosi kontekstga, madaniy tajribaga va nutq vaziyatiga qarab kengayadi yoki torayadi. Frazeologik birlik ichidagi qo'shma so'z quyidagi yo'llar bilan ko'p ma'nolilik hosil qiladi: *Metaforik kengayish* - asosiy (to'g'ri) ma'no ko'chma ma'noga o'tadi. “*Black sheep*”: o'z ma'nosida - a sheep with black wool, ko'chma ma'noda - an odd or disreputable member of a family. *He is the black sheep of the family*. “*Cold-hearted*”: o'z ma'nosida - having a cold heart (impossible biologically), ko'chma ma'noda - unemotional, cruel. *She was cold-hearted and showed no sympathy*. *Metonimik kengayish* - ma'no yaqinlik asosida ko'chadi. “*White-collar*”: oz ma'nosi - white shirt collar, ko'chma ma'nosi - office worker, non-manual labor: *He works in a white-collar job*. Kontekstual ko'p ma'nolilik, ba'zi qo'shma so'zlar frazeologik birlik ichida turlicha talqin qilinadi: “*Breakdown*” – *The car had a breakdown. She had a nervous breakdown*. “*Headstrong*”: strong-headed, stubborn - *He is too headstrong to listen to advice*. Bu misollarda qo'shma so'z umumiy leksik ma'noga ega bo'lsa-da, frazeologik kontekstda ma'no torayadi yoki metaforiklashadi. *Konseptual metafora* - inson abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali tushunadi. Masalan; “*Time is money*”, “*Heart of stone*” - Bu yerda *heart* insonning hissiy markazi sifatida konseptualizatsiya qilinadi.

Ikkinchi bobning so'nggi, uchinchi faslida “*Frazeologizmlar tarkibida qo'shma so'zlar derivatsiyasi va struktur-semantik ko'chimlar*” tahlilga tortilgan. *Derivatsiya* - (lot. *derivatio* - ajratish; shakllantirish) - bu lingvistik birliklarni (hosilalarni) boshqasi, dastlabki, asli asosida yaratish jarayoni bo'lib, bu jarayonda asl birliklar sifatida qabul qilingan birliklarning *shakli* (struktur tuzilishi) va *semantikasida* o'zgarishlar yuz beradi. Shunday qilib, *derivation* asos til yoki nutq materiali sifatida tushuniladi, uning yordamida motivasiyalashtiruvchi asos frazeologik birlik shaklida yasaladi. *Derivation* asosdan tashqari, *motivation* asos ham ajratiladi, bu frazeologik birlikda zohirlashadigan ma'noni anglatadi²³. Ma'lumki, qo'shma so'zlar tizimida chiziqli derivatsiya eng ko'p ta'sirga ega

²⁰ Мешков О.Д. Семантические аспекты словосложения английского языка. – Москва: Наука, 1968. – С. 24.

²¹ Hornby A.S. Oxford Advanced Learner's Dictionary of Current English. – 7th ed. – Oxford, 2005. – 1539 p.

²² Concise Oxford English Dictionary (COED). – Oxford: Oxford University Press, 2006. – 1702 p.

²³ Бекоева М.Т. Теория общей фразеологии. – Владикавказ: ИПЦ СОГУ, 2019. – С. 38.

bo‘lgan yo‘nalishdir. Shu tizimga kiruvchi birliklarning katta qismi asosan tarkibiy qismlarining bir tekis birikuvini asosida yasaladi va bu ularning struktur modellarida o‘z aksini topadi. Masalan: *teaspoon* kabi birikuv N1+N2 modeliga ega bo‘lsa, *the hand-grenade* birikmacining derivasion modeli N1+(-)+N2. Xuddi shuningdek, *blueprint* kabi birikmalar A+N yoki Adj+N modeliga ega; ayni paytda Ving+N va Ven+pr+N modelidagi *runninghorse*; *broken-in-pieces* birikmalari ham chiziqli derivatsiya jarayonining mahsulidir. Misol tariqasida frazeologizmlar tarkibida faol ishtirok etadigan zoonim qo‘shma so‘zlarni tahlilga tortamiz. Zoonim qo‘shma so‘zlarni shakllantirishda turli xil kognitiv modellardan foydalanish mumkin – metaforik, metonimik va propozitsion. Zoonim qo‘shma so‘zlarning majoziy ma‘nolari *Animal* → *Human Being* metaforik modelga muvofiq "konseptual metafora" kognitiv mexanizmi quyidagi izohlovchi xususiyatlarga asoslanib ishlab chiqilgan: 1) **“quality”**: *jellyfish, bluebottle, wryneck, cleanskin, etc.* “Either of two cryptically coloured Old World woodpeckers, *Jynx torquilla* or *J. ruficollis*, which do not drum on trees” ma‘nosiga ega *wryneck* qo‘shma so‘zi *Part* → *Whole* kognitiv modeli asosida yaratiladi. Ushbu qo‘shma so‘zning “a person who has a twisted neck” majoziy ma‘nosi "physical quality" izohlovchi xususiyat asosida yaratilgan [COD. E-r.]; 2) **“function”**: *bulldog, sleuthhound, watchdog, etc.* *Bulldog* (“a dog of a sturdy breed with a powerful protruding lower jaw, a flat wrinkled face, and a broad chest”) [COD. E-r.]; 3) **“action”**: *copperhead, lovebird, bloodsucker, etc.* *Copperhead* (“a venomous reddish-brown snake, *Agkistrodon contortrix*, of the eastern US: family *Crotalidae pit vipers*”) zoonim qo‘shma so‘zi semantikasining shakllanishi – bu ikkita, ya‘ni *Part* → *Whole* (hayvon o‘z tanasining bir qismi bilan nomlanadi) va *Whole* → *Part* (rangni nomlash uchun modda nomining qo‘llanilishi) metonimik modellariga muvofiq “konseptual metonimiya” kognitiv mexanizmi yordamida amalga oshiriladi; 4) **“place”**: *snowbird*, “a widely junco (*Junco hyemalis*) commonly seen in the winter” qo‘shma so‘zining semantikasi *Subject – Be Associated With – Substance* propozitsion kognitiv model asosida aniqlanadi va qor borligi bilan ajralib turadigan joyga havola qilinadi. “A northern tourist who vacations in the South during the winter” qabilidagi majoziy ma‘no "place" (joy)ning izohlovchi xususiyati asosida yaratilgan; 5) **“period of time”**: *nighthawk*. “Any of a genus of North American nightjars related to the whip-poor-will” ma‘nosida qo‘llaniluvchi *nighthawk* qo‘shma so‘zi *Subject – Oper – Time* propozitsion kognitiv modeli yordamida yaratiladi. Ushbu qo‘shma so‘z tagzaminida mavjud “a person who is habitually up or moving about late at night; night owl” semantik ko‘chimi “period of time” xarakteristikasi asosida yaratiladi. Odamning ham qush kabi tunda o‘z faolligi bilan ajralib turishiga urg‘u beriladi. Zoonim qo‘shma so‘zlarning majoziy ma‘nolarini shakllantirish *Animal* → *Human Being* modelining “quality – sifat”, “function – funksiya”, “action – harakat”, “place – joy”, “period of time – vaqtning ma‘lum davri” izohlovchi xususiyatlariga asoslangan “konseptual metafora” kognitiv mexanizmi yordamida amalga oshiriladi. Shunisi qiziqki, murakkab so‘zning majoziy ma‘nosini yaratish qo‘shma so‘zning yaratilishini belgilaydigan xususiyatlarga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida erishilgan natijalarga asoslanib shunday xulosaga kelish mumkinki, qo‘shma so‘zni

yaratishni ham, uning polisemantik xususiyati, ya'ni ko'pma'noliligini rivojlantirishni ham belgilaydigan kognitiv jarayon – bu konseptual derivatsiyadir.

“Frazeologizmlar tarkibida qo'shma so'zlarning pragmatik imkoniyatlari” deb nomlanuvchi uchinchi bobning birinchi faslida *“Qo'shma so'zlarning matn shakllantirish imkoniyatlari”* o'rganildi. Qo'shma so'zlarning tabiatini bilish uchun uning nominativ xususiyatlaridan tashqari, kommunikativ imkoniyatlarini o'rganish ham zarur bo'ladi. Struktur- semantik tuzilishning kommunikativ vazifa bilan moslashuvi natijasida qo'shma so'zlar diskursiv hodisa maqomini ham oladi. Matn kommunikativ mazmunining uni shakllantiruvchi vositalarning struktur-semantik xususiyatlari bilan bog'liq jihatlarini o'rganish muhimdir²⁴. Qo'shma so'zlar ham o'zlari qo'llanilayotgan matn bilan funksional-semantik jihatdan munosabatga kirishadi va shu bois ularni “struktura – semantika – vazifa” uchligi doirasida tahlil qilish imkoniyati bor. Bunday tahlilda qo'shma so'zlarning gap va matn sathlarida bajaradigan vazifalarini farqlash talab qilinadi. Nutq tizimida qo'shma so'zlar leksik, grammatik va sintaktik sathiga oid turli birliklar bilan uzviy va ajralmas munosabatlarga kirishib, matn tuzilishini ta'minlovchi vositalar qatoridan o'rin oladilar. Ingliz tilidagi keep fe'li ishtirokida yasalgan qo'shma so'zlarning frazeologizmlar tarkibida faollashuvini tahlil qilish hayratlanarli natija berdi, ushbu fe'l yuzdan ortiq frazeologik birliklar tarkibidan joy olganligiga guvoh bo'ldik: keep all one's goods in the shopwindow, keep a sharpeye out for smb (smt), keep a rod-in-pickle (for smb), keep in the background, keep one's mind on smth, keep one's mouth shut, keep on the rightside of the law etc. Matn shakllanishida qo'shma so'zlarning ham o'ziga xos o'rni bor, agar yuqorida qo'shma so'zlarning frazeologik birikmalar yasashdagi faol ishtiroki inobatga olinsa, bunga shubha qolmaydi.

Frazeologizmlar tarkibida qo'shma so'zlar nafaqat leksik-semantik, balki *matn shakllantiruvchi (text-forming)* vosita sifatida ham muhim o'rin tutadi. Ular matnda mazmuniy yaxlitlikni ta'minlaydi, baholovchi va emotsional fon yaratadi, kommunikativ niyatni kuchaytiradi, konseptual birlik hosil qiladi, referensial va pragmatik bog'lanishni mustahkamlaydi. Qo'shma so'z matnda asosiy konseptual yadroni shakllantiradi va keyingi gaplar shu semantik markaz atrofida rivojlanadi. Masalan: He was a *cold-blooded* leader. His cold decisions affected thousands of people. Even in crisis, he showed no emotion. Bu yerda *cold-blooded* qo'shma so'zi matnning baholovchi markaziga aylanib, keyingi gaplarda “cold decisions”, “no emotion” kabi birliklar orqali ifodalanadi.

Qo'shma so'zlar matn ichida leksik takror, sinonimik kengayish yoki semantik maydon hosil qilish orqali bog'lanish yaratadi. Masalan: She felt heartbroken. That heartbreak changed her life. The broken heart made her stronger. Bu yerda *heartbroken* qo'shma so'zi “heartbreak”, “broken heart” birliklari bilan semantik zanjir hosil qilib, matn bog'lanishini ta'minlaydi. Qo'shma so'z matnning umumiy ohangini (tone) belgilaydi, masalan: The speech was mind-blowing. The audience sat in stunned silence. Everyone felt overwhelmed by the powerful ideas. *Mind-*

²⁴ Даниева М.Дж. Когнитивны особенности субстантивных словосочетаний в английском языке. – Riga: LAP LAMBERT Academic Publishing: SIA OmniScriptum Publishing., 2018. – P. 35.

blowing qo‘shma so‘zi matnga hayrat va kuchli ijobiy pragmatik fon beradi. Qo‘shma so‘z ma‘lum kognitiv freymni ishga tushiradi va matnni shu model asosida rivojlantiradi. Bu jarayon kognitiv lingvistika doirasida George Lakoff tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi bilan izohlanadi. *He is a backstabber. You can never trust him. He smiles at you and then betrays you.* *Backstabber* qo‘shma so‘zi BETRAYAL IS PHYSICAL ATTACK metaforasini faollashtiradi va butun matn shu freym asosida quriladi. Qo‘shma so‘zlar dramatik yoki baholovchi kuchni oshirib, matnning ta‘sirchanligini kuchaytiradi. Masalan: *The company collapsed overnight. The once- powerful corporation faced a complete breakdown. It was a heartbreaking failure.* Bu yerda *breakdown* va *heartbreaking* qo‘shma so‘zlari dramatik dinamikani kuchaytiradi. Frazeologizmlar tarkibidagi qo‘shma so‘zlar matn shakllantirishda tematik markaz hosil qilib, kohesiv vosita sifatida xizmat qiladi, pragmatik fon yaratadi, konseptual freymni faollashtiradi, diskursiv strategiyani belgilaydi va matnning ekspressivligini oshiradi.

Shu sababli qo‘shma so‘zlar frazeologik birlik tarkibida nafaqat leksik element, balki *matn hosil qiluvchi pragmatik mexanizm* sifatida ham namoyon bo‘ladi. Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, falsafa va boshqa ko‘plab shu kabi bilim sohalarida qo‘llaniladigan “diskurs” atamasi fanlararo xususiyatga ega. Diskurs – bu “hayotdan olingan” nutq...”²⁵. Tarkibida *molehill* qo‘shma so‘zi mavjud *make a mountain out of a molehill* frazeologik birligining kontekstda faollashuvi jarayonida uch funksiyani bajarishini ko‘rsatib beradi: ekspressiv-majoziy, giperbolizatsiya va baholash. O‘zbek tilidagi “Pashshadan fil yasash” frazeologizmiga ekvivalent bo‘lgan ushbu frazeologik birlik orqali bir frazeologik birlik bir kontekstda, bir vaqtning o‘zida bir nechta funksiya/vazifa bajarishi mumkin ekanligi dalillangan. Uchinchi bobning ikkinchi faslida “*Tarkibida qo‘shma so‘zlar ishtirok etgan idiomatik birliklar tuzilishining konseptual-kognitiv tasviri*” o‘rganilgan. Kognitologiyaning asosiy tushunchalaridan biri – kategoriyalashtirish bo‘lib, u insonning turli mantiqiy amallar asosida yuzaga keladigan bilish jarayonidir²⁶. Mantiqiy amallar esa qiyoslash, qarama-qarshi qo‘yish, aniqlashtirish, mavhumlashtirish kabi ko‘rinishlarni olishi mumkin. Jumladan, head so‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlardan kategoriyalashtirish jarayonida faqat kallaning tanadagi boshqa qismlarga nisbatan yuqorida joylashuvi inobatga olinadi. Natijada, “yuqori” umumlashgan ma‘nosi vujudga keladi. Bunda biz *headache, headband, headstone, headlight, headstrong, headway, headhunter, headcount, headgear, headmaster* kabi qo‘shma so‘zlarning semantik strukturasi hosil bo‘lishini ko‘ramiz. Xuddi shu singari *foot* so‘zining “quyi, past” ma‘nosini kasb etishi oyoqning gavdaning quyi qismida joylashgan kategoriyalashuv asosini yaratadi va quyidagi qo‘shma so‘zlar hosil bo‘ladi; *footprint, football, footwear, footlocker, footstool, footbridge, footpath, footnote, footwork, footsie* va b. Idiomatik birliklar - semantik jihatdan butunlashgan, ko‘chma ma‘no ifodalovchi turg‘un birikmalardir. Ularning tarkibida qatnashgan *qo‘shma so‘zlar* (compound words) esa ko‘pincha obrazli, metaforik va madaniy tajribaga asoslangan ma‘no

²⁵ Артюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт.. – Москва: Наука, 1988. – С. 39.

²⁶ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 21

tuzilmasini hosil qiladi.

Qo'shma so'zli idiomatik birliklarning kognitiv modeli odatda quyidagi bosqichlarda shakllanadi: 1 Quyidagi jadvalda berilgan qo'shma so'zli idiomatik birliklarning kognitiv modeli tizimli ravishda ko'rsatilgan:

Idiomatik birlik, Literal structures Manba domen (Source domain) Maqsad domen (Target domain) Abstrakt tushuncha Konseptual xaritalash (Cognitive model)

1) Cold-blooded cold + blood + -ed Harorat (temperature), Emotsiya (emotions) Hissiy sovuqlik EMOTION IS HEAT metaforasi: issiqlik – hissiyot, sovuqlik – befarqlik, Shafqatsiz, hissiyotsiz.

2) Narrow-minded, narrow + mind Jismoniy makon (physical space) Intellectual salohiyat, Fikrlash chegaralanganligi MIND IS A CONTAINER metaforasi: kenglik – ochiqlik, torlik – cheklanganlik. Yangi g'oyalarni qabul qilmaydigan.


3) Breakdown break + down. Jismoniy buzilish (physical destruction) .Ruhiy holat (psychological state) Ruhiy izdan chiqish. MENTAL STABILITY IS STRUCTURAL STRENGTH modeli: mustahkamlik – barqarorlik, sinish – izdan chiqish. Ruhiy tushkunlik, asabiy buzilish.

4) Heartbroken heart + broken. Jismoniy shikast (physical damage) Emotsional og'riq. Qattiq qayg'u. HEART IS THE CENTER OF EMOTION metaforasi: yurak – hissiyot markazi. Qattiq ranjigan, dili vayron.

Strukturaviy jihatdan: qo'shma so'z shaklida morfologik butunlik hosil qiladi. Semantik jihatdan: metaforik va metonimik kengayishga ega.

Kognitiv jihatdan: konseptual metafora va freym tizimi orqali shakllanadi.

Tafakkur jarayoni: inson ongidagi manba domen va maqsad domen o'rtasidagi konseptual xaritalashni aks ettiradi. Idioma yunon tilidan olingan bo'lib, o'ziga xoslik sifatida tarjima qilinadi, bu faqat ma'lum bir tilga xos bo'lgan badiiy ifoda vositalardan biridir va ba'zan boshqa tillarda ekvivalenti yo'qligi bilan xarakterlanadi. Ingliz tilida 25000 ga yaqin idiomalar mavjud. Ko'pincha badiiy adabiyot matnlarida yoki ingliz tili og'zaki nutqida "Big cheese" (Katta pishloq) idiomasi uchun kelishimiz mumkin. Big cheese - So'zma-so'z – "katta pishloq" deb tarjima qilinadigan ushbu idiomaga muhim odam (katta lavozimda ishlaydigan odam) ma'nosida qo'llanadi. Idioma kelib chiqishining britaniyacha varianti sharqshunoslar Genri Yule va Artur Bernellning 1886 yilda nashr etilgan mashhur ingliz-hind iboralari lug'atida berilgan. Qo'shma so'zlar ham lisoniy bilimni tilda voqelantirishning vositasi va bu vositaning harakatga kelishini, idrok etilayotgan bilimning tafakkurda aks topish yo'llarini bilish uchun freymli andoza usuliga murojaat qilindi. Freymning ma'lum bir ma'noni shakllantirish andozasi sifatida til birliklari tadqiqida qo'llanishi, ushbu tadqiqot yo'nalishining samarasini belgilaydi. "Doghouse" freymning qo'shma so'zlar tahliliga tatbiq qilinishida "animal" va "things"ni tashkil etuvchi subfreymlar ajratildi hamda bu qismlar alohida tugunlarga taqsimlandi, "animal" subfreymidan "Dog" hamda "things" subfreymidan "house" so'zlari o'rin oladi. Shu tariqa "Doghouse" qo'shma so'zining freym tasviri hosil bo'ldi (1-rasmga qarang:).



1-rasm. “Doghouse” qo‘shma so‘zining freym tasviri

Aytish joizki, keltirilgan freym sxemasi eng sodda ko‘rinishga ega. Freym sxemalari, odatda, umumiy xarakterga ega bo‘lib, alohida til uchun boshqa biror alohida ko‘rinishda bo‘lmaydi. Ba’zi qo‘shma so‘zli idiomalar ma’lum madaniy freymga asoslanadi: “White-collar crime”-Literal; white collar, conceptual frame; office work, bureaucracy. Example; White-collar crime often involves financial fraud. Bu yerda kiyim elementi kasb va ijtimoiy sinfni ifodalovchi belgiga aylangan. Shunday qilib, semantik yaxlitlikning asosiy omili frazeologik ma’noning motivatsiyalashmagani emas, balki leksemalarda mustaqil yetakchi ma’nolarning yo‘qligi. An’anaga ko‘ra, idiomatika faqat tilning alohida shakllangan birliklariga xos bo‘lib, aynan shu xususiyat mavjudligi tufayli ular idiomalar deb ataladi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, semantik yaxlitlik asosiy darajadagi birliklarning sintagmalari hisoblanadigan tilning barcha darajalaridagi birliklar – morfemalar, so‘zlar, so‘z birikmalari va iboralarda mavjuddir. Bu shuni ko‘rsatadiki, semantik yaxlitlik tabiiy tilning tuzilishi va funksiyasini, shuningdek, uning bir qator belgilar tizimlarida o‘ziga xosligini belgilaydigan asosiy xususiyatidir. Shu bilan birga, analitik tizimga mansub bo‘lgan ingliz tilida struktur-semantik qonuniyatlar ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Turg‘un so‘z birikmalari va iboralar darajasida namoyon bo‘ladigan semantik yaxlitlik idiomatika deb ataladi.

Oxirgi bobning so‘nggi faslida *“Frazeologizmlar pragmatik mazmuni shakllanishida qo‘shma so‘zlarning o‘rni”* aks ettirilgan. Pragmatika tushunchasi dastlab Arastu tomonidan qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik faylasuflar J.Lokk va E.Kantlar tomonidan keng muomalaga kiritildi. Falsafada paydo bo‘lgan bu tushuncha XX asrga kelib pragmatizm oqimining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu oqimning taraqqiyot davri XX asrning 20-30 yillariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, keyinchalik u tilshunoslik faniga ham kirib keldi. Pragmatika muammosini o‘rganishga bag‘ishlangan fikrlar Ch.Pirs, U.Jeyms, D.Dyun, Ch.Morris asarlaridan o‘rin olib, keng miqyosda o‘rganildi. “Pragmatika, aslida, falsafiy tushuncha bo‘lib, u Suqrot dan oldingi davrlarda ham qo‘llanishda bo‘lgan va keyinchalik uni J.Lokk E.Kant kabi faylasuflar Arastudan o‘zlashtirganlar. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX- XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30- yillarida pragmatizm g‘oyalarining keng targ‘ibi aniq sezila boshladi. Amerika va Yevropada bu targ‘ibotning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitgenshteyn kabi olimlarning xizmatlarini alohida qayd

etmoq kerak”²⁷. Frazelogizmlar pragmatik mazmuni shakllanishida qo‘shma so‘zlarning o‘rni haqida gapirganda, ularning qayta yaratilish yoki qo‘llanish (reproduction) xususiyatini ham nazardan qochirmaslik kerak. Frazelogizmlar (idiomatik birliklar) nafaqat semantik, balki *pragmatik mazmun* ham ifodalaydi. Pragmatik mazmun - bu nutq jarayonida ifodalanadigan qo‘shimcha baho, munosabat, emotsiya, ijtimoiy signal va kommunikativ maqsaddir. Tarkibida *qo‘shma so‘zlar (compound words)* qatnashgan frazeologizmlar ayniqsa kuchli pragmatik yuklama hosil qiladi, chunki ular ixcham shaklda murakkab konseptual va baholovchi ma‘noni uzata oladi. Kognitiv-pragmatik yondashuv asoslari George Lakoff va Mark Johnson nazariyalariga borib taqaladi. Ularning konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, til birliklari inson tajribasiga asoslangan holda baholovchi va ta‘sirchan mazmun hosil qiladi.

Frazelogizm tarkibidagi qo‘shma so‘zlar quyidagi pragmatik funksiyalarni bajaradi: 1. Baholovchi (evaluative), so‘zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabatini bildiradi: *“Cold-blooded”* - The crime was cold-blooded (salbiy baho, ahloqiy hukm). *“Big-headed”* - He became big-headed after the promotion (tanqidiy, kinoyaviy ohang). Bu yerda qo‘shma so‘z nutq egasining subyektiv pozitsiyasini ochiq ko‘rsatadi. 2. Emotsional-ekspressiv funksiya - frazeologizm ta‘sirchanlikni oshiradi: *“Heartbroken”* - She was heartbroken after the breakup (kuchli hissiy yuklama); *“Mind-blowing”* - The movie was mind-blowing (hayrat va kuchli ijobiy reaksiya). Qo‘shma so‘z obrazlilikni kuchaytirib, oddiy “very sad” yoki “very impressive” dan ko‘ra kuchliroq ta‘sir beradi. Intensifikatsiya (kuchaytirish) ba‘zi qo‘shma so‘zlarda pragmatik kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlaydi; *“Overconfident”* - He was overconfident and failed the exam (tanqid va ogohlantirish mazmuni); *“Short-tempered”* - She is short-tempered today (xulq-atvorni baholash). Bu birliklar ijtimoiy normadan chetlanishni bildiradi. 3. Ijtimoiy identifikatsiya (Social indexing), qo‘shma so‘zlar nutq ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi yoki guruhini bildiradi: *“Blue-collar worker”* - He is a blue-collar worker. *“White-collar crime”* - White-collar crime is difficult to detect. Bu yerda qo‘shma so‘z ijtimoiy konnotatsiya va stereotiplarni ham olib keladi. Pragmatik mazmun shakllanishida metaforik asosga tayanadi. Abstrakt tushuncha esa konkret obraz orqali namoyon bo‘ladi; *“Backstabber”* - He turned out to be a backstabber (Xiyonatni fizik jarohat bilan tenglashtirish). Bu yerda xiyonat = orqadan pichoq urish konsepti orqali kuchli salbiy pragmatik effekt yuzaga keladi. Frazelogizmlarda pragmatik mazmun shakllanishida konnotativ kengayish ham namoyon bo‘ladi. Qo‘shma so‘z asosiy ma‘nodan tashqari qo‘shimcha baholovchi ma‘no hosil qiladi; *“Know-it-all”* - Nobody likes a know-it-all (salbiy, kinoyaviy ohang); *“Good-hearted”* - She is a good-hearted person (ijobiy ijtimoiy bahoni ifodalaydi). Bir xil qo‘shma so‘z turli vaziyatda turli pragmatik ma‘no beradi; *“Hard-headed”* - Positive, practical, realistic: She is hard-headed in business decisions. Negative means; stubborn: He is too hard-headed to admit his mistake. Demak, pragmatik mazmun kontekstga bog‘liq ravishda shakllanadi. Frazelogizm

²⁷ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 73.

tarkibidagi qo‘shma so‘z mental obraz yaratadi, baholovchi pozitsiyani bildiradi, kommunikativ niyatni kuchaytiradi, ijtimoiy stereotipni faollashtiradi, nutqning ta’sirchanligini oshiradi. “*Hot-headed*” → ANGER IS HEAT metaforasi, → Issiqlik = jahldorlik, → Pragmatik mazmun: tanqid yoki ogohlantirish ma’nolarini ifodalaydi.

Shunday qilib, qo‘shma so‘zlar ko‘pincha turli xil ma’nolarni shunchalik oson va tez yetkazishi mumkinki, ular ishtirokida shakllangan frazeologik birliklar kontekstga qarab, yangidan-yangi semantik ma’nolarga ega bo‘ladi. Frazeologik birlik orqali ifodalanayotgan jumlaning nutq vaziyati bilan munosabatini o‘rganish ushbu jumlaning pragmatik jihatini tashkil qiladi. Pragmatika tushunchasi konkret holat, shart-sharoitga monand ish ko‘rish, moslashish, amal qilish tushunchalarini ham qamrab oladi. Shuning uchun ham “pragmatik” atamasi “amaliy” degan ma’noda ham qo‘llaniladi. Pragmatik fikrlash, pragmatik harakat qilish, pragmatik faoliyat ko‘rsatish ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan pragmatik faoliyat deganda eng muhim ma’lumotni kam so‘z bilan aniq, yaqqol va tushunarli ifodalash anglashiladi. Va bu vazifani frazeologik birliklar tarkibidagi qo‘shma so‘zlar juda yaxshi uddalaydi. Ushbu so‘z birligi turli diskursiv muhitlarda nolisoniy voqelikning o‘xshash holatlarini tasvirlaydi, lekin til birliklarining semiotik belgi xususiyatiga ega bo‘lishi ularning nafaqat turg‘unligini, balki to‘xtovsiz taraqqiy etib borishini ham ta’minlaydi.

UMUMIY XULOSALAR

1. So‘z yasash motivatsiyalangan (ikkilamchi) nomlarni modellashtirish sohasi bo‘lib, yangi so‘zlarni yasash aksariyat hollarda tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarni ma’lum namunalar shaklida taqdim etish orqali amalga oshirilishi aniqlangan; ikki yoki undan ortiq asoslardan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘zlar ma’lum tarkibiy va semantik modellarga muvofiq “qurilishi”, masalan, *snow-white* kabi sifatlar N+Adj (ot+sifat) formulasi bo‘yicha hosil bo‘ladi.

2. Ingliz tilidagi qo‘shma so‘zlarning N+N, N+A, N+G, N+PI, N+PII, N+D, A+N, A+A, A+PI, A+PII, A+D, V+N, V+A, V+V, V+Pr.a, V+D, G+N, PI+N, PII+N, Pr.p +N, Pr.a + N, Pr.a + PI, Pr.a + PII, Pr.a + D, D+N, D+A, D+V, D+PI, D+PII, D+D, Num.c+N, Num.c+A, Num.o+N, Num.o+A, Num.o + D, Prep+ N, Prep + Pr.p, Part + N, V= prep (bu yerda N – ot, A – sifat, V – fe‘l, G – gerundiy, PI – sifatdosh I, PII – sifatdosh II, Pr.n – substantiv olmosh, D – ravish, Num.c – sanoq sonlar, Num.o – tartib sonlar, Prep – predlog, Part – yuklama) modellarga muvofiq shakllanishi ularning asosida turgan semantik, kognitiv va pragmatik omillarni aniqlashtirish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

3. Tarkibiga ko‘ra ingliz tilidagi barcha so‘zlar: oddiy, (*water - suv, red - qizil*); affiksli hosilalar (*hopeless - umidsiz*) va qo‘shma so‘zlar (*chairman – rais*) ga bo‘linishi misollar asosida keltirildi. Strukturaviy tuzilishiga ko‘ra, qo‘shma so‘z ikki yoki undan ortiq asoslardan iborat so‘zlar ekanligi *light-green* (och yashil), *toothpaste* (tish pastasi) kabi misollar orqali yoritildi.

4. *N+N (ot+ot)* modeli qo'shma so'zlar strukturaviy yaxlitligining eng keng tarqalgan modeli ekanligi aniqlangan; *N+NV (ot+fye'l)* verbal-nominativ modeli qo'shma so'zlar modeli beshta kichik guruhga bo'lib o'rganilgan: **1) N+(V+er)**; **2) N+(V+ing)**; **4) N+(V+tion/ment)**; **5) N+(V+conversion)**; *V+Adv* → [(*V+Adv*) + *conversion*] (*fe'l+ravish*) verbal+adverbal frazali fe'llardan hosil bo'lgan qo'shma so'zlar; *V+V (fe'l+fe'l)* verbal+verbal guruhi hosilali qo'shma so'zlarni o'z ichiga olishi isbotlangan; *Adj+(N) (sifat+ot)* adyektiv-nominativ guruhlar ikki xil bo'lishi: **a) Adj+(N+er)**; **b) Adj+(V+ing)**. bilan ajralib turadi.

5. Qo'shma so'zlarga polisemiya hodisasi xosligi ochib berilgan, ularning tilning boshqa birliklari singari bir-biriga bog'liq bo'lgan bir nechta ma'nolarni o'zida mujassam etish imkoniyatiga ega ekanligi dalillangan. Ko'p ma'nolilikning qiyoslash, metafora, metonimiya va evfemizm kabi stilistik vosita turlariga asoslangan holda yangi ma'no kasb etishi tahlil qilindi.

6. Chiziqli derivatsiyada qo'shma so'zlar asosan tarkibiy qismlarining bir tekis birikuvi asosida yasalishi va bu ularning struktur modellarida o'z aksini topishi aniqlangan: *teaspoon* qo'shma so'zi *N1+N2* modeliga ega bo'lsa, *the hand-grenade* birikmacining derivasion modeli *N1+(-)+N2*, *blueprint* kabi birikmalarning *A+N* yoki *Adj+N* modeliga ega ekanligi; ayni paytda *V-ing+N* va *V-en+Prep+N* modelidagi *runninghorse*; *broken-in-pieces* birikmalari ham chiziqli derivatsiya jarayonining mahsuli ekanligi semantik tahlil asosida farqlandi.

7. *N+N* va *A+N* (*N* - noun, *A* - adjective) modellari bo'yicha shakllangan birikmalar va qo'shma so'zlarni yaratish uchun metaforaga murojaat etilishi ochib berilgan. Qo'shma so'zlarning majoziy ma'nolari *Animal* → *Human Being* metaforik modelga muvofiq "konseptual metafora" kognitiv mexanizmi 1) "quality": *jellyfish*, *bluebottle*, *wryneck*, *cleanskin*, etc.; 2) "function": *bulldog*, *sleuthhound*, *watchdog*, etc.; 3) "action": *copperhead*, *lovebird*, *bloodsucker*, etc.; 4) "place": *snowbird*; 5) "period of time": *nighthawk* kabi izohlovchi xususiyatlari orqali ifodalanishi kognitiv jahatdan tizimlashtirildi.

8. Qo'shma so'zlarning kommunikativ qiymati ularning matn yaratilishidagi o'рни, kommunikatsiya jarayonidagi ishtiroki bilan belgilanishi aniqlangan. Qo'shma so'zlarning matn yaratish imkoniyatiga ega ekanligi, eng avvalo, ularning sarlavha tarkibida qo'llanishi orqali bevosita namoyon bo'ladi: sarlavhadagi qo'shma so'zlar matn mavzusini belgilovchi rolini bajaradigan asosiy lingvistik vosita hisoblanadi.

9. Ayrim leksemalarning mavhumlashtirish jarayonida umumlashgan ma'no kasb etishi yoritilgan, jumladan, *head* so'ziga xos bo'lgan xususiyatlardan konseptuallashtirish jarayonida faqat kallaning tanadagi boshqa qismlarga nisbatan yuqorida joylashuvi inobatga olinishi natijasida "yuqori" umumlashgan ma'no *headache*, *headband*, *headstone*, *headlight*, *headstrong*, *headway*, *headhunter*, *headcount*, *headgear*, *headmaster* kabi qo'shma so'zlarning semantik strukturasi vujudga kelgan. Xuddi shu singari *foot* so'zining "quyi, past" ma'nosini kasb etishi oyoqning gavdaning quyi qismida joylashgan konseptuallashtirish asosining yaratilishi natijasida *footprint*, *football*, *footwear*, *footlocker*, *footstool*, *footbridge*, *footpath*, *footnote*, *footwork*, *footsie* kabi qo'shma so'zlar hosil bo'lgan.

10. Qo'shma so'zlarning semantikasidagi baholovchi qiymat asosan *ill-*, *good-*, *bad-*, *well-* kabi tarkibiy komponentlar yordamida voqelanadi. Bunday qo'shma so'zlarning asosan ijobiy baholashni ifodalashi (60%), qolgan 40% foizi salbiy bahoni bildirishi; ya'ni to'g'ridan-to'g'ri leksik ma'noda (denotativ) ijobiy bahoning ustunlik qilishi va salbiy bahoning ko'pincha konnotatsiyada namoyon bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ
УЗБЕКИСТАНА**

АМИРКУЛОВА НАРГИЗА АМИРКУЛ КИЗИ

**КОГНИТИВНО СЕМАНТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ
ОСОБЕННОСТИ СЛОЖНЫХ СЛОВ В СОСТАВЕ
ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ
(НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА)**

10.00.04 – Языки и литература народов Европы, Америки и Австралии

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии по (PhD) филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии по филологическим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан под номером B2022.4.PhD/Fil3005.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский) размещён на веб-сайте Научного совета www.samdchti.uz, а также на информационном образовательном портале «Ziyonet» www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:

Елькин Денис Юрьевич

доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
доцент

Официальные оппоненты:

Татьяна Анатолевна Бушуй

доктор филологических наук, профессор

Давлатова Мухайё Хасановна

доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
доцент

Ведущая организация:

Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании научного совета по присуждению учёных степеней PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков «19» май 2026 года в 12 часов (Адрес:140117 Узбекистан Самарканд улица Гагарина 43. Тел.: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандском государственного университета иностранных языков (зарегистрирована под № 63168) Адрес:140117 Узбекистан Самарканд улица Гагарина 43. Тел.: (99866) 234-29-36; e-mail info@samdchti.uz

Автореферат диссертации разослан « 14 » май 2026 года.
(протокол реестра рассылки за № 35 от « 17 » май 2026 года).



Н.З. Насруллаева

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Д.А. Киселёв

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последние годы в мировой лингвистике значительно возрос интерес к когнитивному изучению моделей словообразования, в том числе сложных слов. Изучение характера сложных слов, их языкового статуса, особенно когнитивно-семантических и прагматических особенностей, проявляющихся в структуре фразеологизмов, требует проведения более глубоких исследований. Актуальность данного исследования определяется значимостью изучения деривационно-семантических свойств сложных слов, являющихся одним из основных средств коммуникативной реализации происходящих в действительности явлений, в связи с их активизирующимися в рамках фразеологических единиц функциями, возможностями по выражению содержания и передаче информации. Доказательство того, что парадигматические и синтагматические отношения, протекающие на языковом и речевом уровнях, возникают в гармонии когнитивной и коммуникативной деятельности, а также изучение образующихся в условиях этой гармонии языковых продуктов – сложных слов - на материале отдельного языка, например, английского, чрезвычайно важно как в теоретическом, так и в практическом плане.

В последние годы в мире уделяется особое внимание научно-исследовательской работе по изучению фразеологических единиц, являющихся средствами формирования и выражения когнитивного и эмоционального содержания языка, выявлению в их составе активизирующихся сложных слов и их текстообразующих возможностей, определению роли сложных слов в формировании прагматического содержания фразеологизмов. В исследованиях, проводимых во всем мире, все большее значение приобретает характеристика деривации и структурно-семантических переносов сложных слов в составе фразеологизмов. Возрастает необходимость когнитивного изучения полисемантических свойств сложных слов во фразеологизмах.

В нашей стране большое значение придается изучению иностранных языков, в частности, изучению особенностей их фразеологического запаса. Укрепление социально-политических и культурно-экономических отношений со многими странами мира, исследование и анализ особенностей политической и межкультурной коммуникации являются важным фактором социокультурного прогресса. Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев, сегодня Узбекистан стал одним из важнейших центров мировой политики, и это признано международным политическим сообществом²⁸. В английской и американской лингвистической литературе пока не так много работ, посвященных теории фразеологии, но даже самые важные научные работы ограничиваются научно обоснованными

²⁸ Послание Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева Олий Мажлису Республики Узбекистан от 20 декабря 2022 года // <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn> (12.10.2025)

критериями выделения фразеологизмов, соотношением фразеологизмов и слов, систематичностью фразеологии, образованием фразеологизмов, методом изучения фразеологии и решением других подобных фундаментальных проблем. Поэтому изучение когнитивно-семантических и прагматических свойств сложных слов в составе фразеологизмов на примере английского языка, впервые проводимое в рамках данной исследовательской работы, имеет актуальное значение.

